



Sotsiologiyatda savod tushunchasi. Savod va ijtimoiy tengsizlik masalasi

Safoyeva Shodiya Ma'ruf qizi

Erkin tadqiqotchi

dilshodovayasina2023@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy jamiyatda har bir insonning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi, atrofdagi voqelikni to'g'ri anglab, unga munosabat bildirish, shuningdek, o'z huquq va majburiyatlarini tushunishi uchun savodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi. Sotsiologiyada "savod" tushunchasi faqatgina o'qish va yozishni bilish darajasigina emas, balki insonning axborotni anglab olish, uni tahlil qilish va uni jamiyatda amaliy qo'llay olish salohiyatini ham o'z ichiga oladi. Savod sotsiologik jarayonlarning yuritilishida muhim rol o'ynaydi: u ijtimoiy guruhlarining faolligi, madaniy ong darajasi, siyosiy ishtirok, kasbiy taraqqiyot va ijtimoiy tenglik kabi ko'plab omillar bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli, sotsiologlar savod masalasini shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy mezonlaridan biri sifatida o'rganadilar. Ushbu kurs ishida savod tushunchasining mohiyati, uning zamonaviy jamiyatdagi o'rnini va sotsiologik yondashuvlar nuqtayi nazaridan ahamiyati tahlil qilinadi. Sotsiologiyada savod tushunchasi jamiyatdagi shaxsning o'qish, yozish va axborotni tushunish qobiliyatiga ega bo'lishini bildiradi. Bu tushuncha keng ma'noga ega bo'lib, nafaqat an'anaviy savod (o'qish-yozish)ni, balki madaniy, siyosiy, texnologik, raqamli va ijtimoiy savodxonlik kabi ko'plab yo'nalishlarni ham qamrab oladi.

Kalit so'zlar: til, jamiyat, kommunikativ savod, savod, ijtimoiy tengsizlik, funksional savodxonlik, raqamli savod, siyosiy savod, madaniy savod.



Abstract: In modern society, literacy is of great importance for every person to actively participate in social life, to correctly perceive and react to the surrounding reality, as well as to understand their rights and obligations. In sociology, the concept of “literacy” includes not only the level of knowledge of reading and writing, but also the ability of a person to perceive information, analyze it and apply it practically in society. Literacy plays an important role in the conduct of sociological processes: it is closely related to many factors, such as the activity of social groups, the level of cultural consciousness, political participation, , professional development and social equality.

Sotsiolingvistika – bu tilni ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganuvchi fan. U tilning jamiyatdagi o‘rni, nutqiy vaziyatlarga moslashuvi, ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi til farqlari kabi masalalarni tahlil qiladi. Sotsiolingvistikaning asosiy vazifalari:

-Tildagi ijtimoiy tabaqalanishni o‘rganish (masalan, yosh, jins, kasb, ta’lim darajasiga ko‘ra);

-Shevalar, sotsiolektlar, kod almashish hodisalarini tahlil qilish. Til siyosati va til rejalashtirish masalalarini o‘rganish. Til va ijtimoiy maqom o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash;

Sotsiolingvistika tilni faqat grammatik tizim sifatida emas, balki ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganadi. Til va jamiyat munosabatida savod tushunchasining o‘rni xususida fikr yuritamiz. Savodli bo‘lish – bu insonning o‘qish va yozish qobiliyatigina emas, balki u tilni jamiyatdagi vaziyatlarga moslashtirib, to‘g‘ri foydalana olish salohiyatidir. Tilshunos L.V. Shcherba shunday degan: “Til – bu ijtimoiy hodisa, uni tushunish uchun jamiyatni tushunish zarur.



Jahonda ta'lim barqaror rivojlanishni ta'minlaydigan asosiy omil sifatida qaralib, o'quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirish hamda ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy qilish vazifalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Jahon Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti PISA (Programme for International Student Assessment) tadqiqotlari dasturi doirasida xalqaro miqyosda 15 yoshli o'quvchilarning funksional savodxonligini (olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qanchalik qo'llay olishlarini) baholab, natijalarga ko'ra ishtirokchi davlatlar ta'limiy yutuqlari tahlillarini taqdim etib kelmoqda. Bu esa o'quvchilarda nazariy bilimlarni turli vaziyatlarda tatbiq etish, tanqidiy fikrlash va nostandart vaziyatlarda kreativ yondashish ko'nikmalarini shakllantirish vositalarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Dunyoda o'quvchilarni muammolarning ilmiy-amaliy yechimlarini topa olish, axborotlar oqimi bilan ishlash, tanqidiy fikrlash, doimiy ravishda o'rganish va rivojlanish, o'zining shaxsiy va jamiyat qadriyatlaridan kelib chiqib professional yo'lini hamda hayotiy ko'rsatmalarini tanlash imkoniyatini rivojlantirishga qaratilgan izlanishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ta'lim sifati monitoringi, ta'lim sifatini milliy baholash asosida boshqarishning zamonaviy shakllari, ta'lim sifatini nazorat qilishning tashkiliy-metodik yondashuvlari, funksional savodxonlikni shakllantirish masalalari, o'quvchilarda shakllanishi lozim bo'lgan kompetensiya turlari, o'qituvchi kompetentligi, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar natijalari muhim ahamiyatga ega.

An'anaviy ta'rifda savod deganda o'qish va yozish ko'nikmalari tushunilgan. Zamonaviy sotsiolingvistikada esa bu tushuncha kengaytirilib, kommunikativ, funksional, va madaniy savod tushunchalarini o'z ichiga oladi. Sotsiolingvistika fanida savod tushunchasiga an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar turlicha mazmunda qaraydi. Bu farqlar zamon o'zgarishi, texnologiya rivoji, axborot jamiyatining shakllanishi bilan bog'liq. Quyida ushbu yondashuvlar o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rib chiqamiz:



1. An'anaviy yondashuvda savod :

Savod – bu yozuvni o'qish va yozish qobiliyati deb talqin qilinadi. Odam harflarni taniy olsa, matnni o'qib yozsa, u savodli hisoblangan. Xususiyatlari: Diqqat markazida fonetik va grammatik ko'nikmalar turadi. Ta'lim jarayoni bosqichma-bosqich: harflarni o'rganish → so'z o'qish → matn tushunish. Asosan boshlang'ich ta'lim darajasida o'rgatiladi. Jamiyatda savodli bo'lish – bu o'qish va yozish egallagan bo'lish bilan teng bo'lgan.

2. Zamonaviy yondashuvda savod.

Savod endilikda ko'p qirrali ijtimoiy-ko'nikmaviy kompetensiya sifatida qaraladi. Faqatgina o'qish-yozish emas, balki axborotni tushunish, tahlil qilish va to'g'ri qo'llay olish qobiliyati ham savodga kiradi. Zamonaviy sotsiolingvistikada savodlilik bir necha ko'rinishga ajratiladi:

Raqamli savodlilik – kompyuter, internet, ijtimoiy tarmoqlarni samarali ishlata olish.

Madaniy savodlilik – turli madaniyat va qadriyatlarni tushunish va hurmat qilish.

Axborot savodxonligi – kerakli ma'lumotni izlab topish, saralash, baholash.

Ijtimoiy savodlilik – jamiyatda muomala qilish, o'z fikrini ochiq va madaniyatli ifodalash.

Yondashuvdagi asosiy farq shundaki, an'anaviy yondashuvda savod — bu qobiliyat (o'qish-yozish) demakdir.

Zamonaviy yondashuvda savod bu kompetensiya (bilim+ko'nikma+muomala+tafakkur) Sotsiolingvistika fanida savod tushunchasi endi faqat til bilimini emas, jamiyatdagi faol ishtirok, fikrlash, texnologiyadan foydalanish va madaniy ongini ham o'z



ichiga oladi. Bu esa zamonaviy inson uchun savodli bo'lishni kengroq va chuqurroq tushunishga olib keladi.

Savodning shu kunga qadar olimlar tomonidan tadqiqot olib borilgan holda quyidagi turlari aniqlangan. Ularni chuqurroq ochib berishga harakat qilamiz:

Funksional savodxonlik – bu insonning o'qish va yozish ko'nikmalarini hayotda real muammolarni hal qilish, ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish uchun samarali qo'llay olishidir. Misol uchun, ariza yozish, hujjat to'ldirish, kasbiy muloqotda tilni to'g'ri ishlatish funksional savodga kiradi. UNESCO bu tushunchani quyidagicha izohlaydi: “Funksional savodxonlik – bu shaxsning o'qish, yozish va hisoblash ko'nikmalaridan kundalik hayot faoliyatida samarali foydalanishidir.” Funksional savodxonlik – bu insonning hayotiy ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida fundamental ibilimlarni o'zlashtirish va qo'llay olish ko'nikmalari negizida shakllanadigan qobiliyatdir. Shakllanishi uchun maqsad, mazmun va natijaviylik komponentlari, muhit hamda rivojlanish ehtiyoji katta ahamiyat kasb etadi. Zaruriy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan kishilar uchun raqamlashtirish va globallashtirish erkinlik va zavq beradigan ishga aylanadi. Sotsiolingvist N. Xudoyberganova ta'kidlaydi: “Funksional savod – bu insonning tilga emas, balki til vositasida ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan malakalar majmuasidir.”¹

Madaniy savod – milliy madaniyatga, qadriyatlarga, nutq etikasi va til me'yorlariga rioya qilish orqali o'z fikrini ifoda eta olish.

Kommunikativ savod – tilni vaziyatga mos, adresatga yo'naltirilgan holda foydalana olish, muloqot jarayonida nutqiy etiket qoidalariga amal qilish.

Raqamli savod – elektron axborot muhitida (ijtimoiy tarmoqlar, rasmiy saytlar, elektron pochta va h.k.) tilni madaniyatli, tushunarli va maqsadga muvofiq ishlata olish.

¹ Xudoyberganova N., Sotsiolingvistika asoslari, toshkent.:2018



Savodli nutq jamiyatdagi ijtimoiy mavqeni belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Ko'pchilik kasblarda to'g'ri va aniq muloqot – professionalizm mezonini sifatida baholanadi. Savodli nutq va ijtimoiy maqom — bu ikki tushuncha ijtimoiy hayotda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir-biri bilan bevosita bog'liqdir. Quyida ular haqida batafsil ma'lumot beramiz:

Savodli nutq — bu grammatik jihatdan to'g'ri, boy, ravon, mazmunli va madaniyatli ifodalangan og'zaki yoki yozma nutqdir. Savodli nutqqa quyidagi xususiyatlar xos:

Grammatik to'g'rilik – so'z va gaplarning tildagi qoida va me'yorlarga muvofiq bo'lishi. Stilistik uyg'unlik – nutqning vaziyatga mos va uslubiy jihatdan to'g'ri tanlangan bo'lishi. Leksik boylik – turli mavzularda so'zlashish uchun yetarli so'z boyligiga ega bo'lish. Aniqlik va mantiqiylik – fikrlar tushunarli, aniq va izchil ifoda qilinadi. Savodli nutq kishining umumiy madaniyati, bilim darajasi, tarbiyasi va tafakkuri haqida tasavvur beradi.

Ijtimoiy maqom — bu insonning jamiyatdagi o'rni, mavqei va obro'sidir. U quyidagi omillar bilan belgilanadi: Kasb yoki lavozim (masalan, shifokor, o'qituvchi, siyosatchi) Ta'lim darajasi Moliyaviy holat Nutq madaniyati va odob-axloqi, jamiyatga qo'shgan hissasi Savodli nutq va ijtimoiy maqom o'rtasidagi bog'liqlik. Savodli va madaniyatli nutq kishining ijtimoiy maqomini oshiradi. Masalan, notiqlik san'atiga ega, fikrini to'g'ri ifoda qila oladigan shaxslar ko'pincha jamiyatda hurmatga sazovor bo'ladi, yetakchilik qobiliyatiga ega bo'ladi va yuqori lavozimlarga erishadi. Savod tushunchasini keng ma'noda tushunib, uni ta'lim tizimida, ommaviy axborot vositalarida va kundalik hayotda ilgari surish zarur. Xalqaro baholash tadqiqot natijalarini tahlil qilish va O'zbekistondagi shart sharoitlarni aniqlashtirish orqali o'quvchilarni xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash, kreativ faoliyatini rivojlantirish, tabiiy ilmiy savodxonligi shakllantirishning metodik tuzilmasi va komponentlarini ishlab chiqish zarur ekanligi aniqlandi. Bo'lajak kimyo o'qituvchilarning kreativ faoliyatini va tabiiy ilmiy savodxonligini rivojlantiruvchi



vositalar: o'quv qo'llanma, darslik hamda kontekst topshiriqlar tizimini ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq etish muhimligi aniqlandi.

Umumiy o'rta ta'lim va ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarni xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash uchun bo'lajak kimyo o'qituvchilarning kreativ fikrlashlarini rivojlantirishda integrativ yondashuv asosida shakllantirish modelini ishlab chiqish kerakli aniqlandi. O'quvchilarning tabiiy ilmiy savodxonligini va kreativ faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar asosida, ta'lim dasturlari va kontekst topshiriqlarni tayyorlash hamda ko'nikmalarini shakllantirish lozimligi tavsiya etiladi.

Kommunikativ va raqamli savodga e'tiborni kuchaytirish;

Til madaniyatiga oid ommaviy targ'ibot ishlari;

Yoshlar o'rtasida til normalariga rioya qilishni targ'ib qilish;

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida funksional savodxonlikni shakllantirishda mezon va ko'rsatkichlarini aniqlash, turli ilmiy nazariyalarni o'rganish, o'quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishda o'qituvchilarning topshiriq tuzish ko'nikmalarini takomillashtirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Xudoyberganova – Sotsiolingvistika asoslari, Toshkent, 2018
2. V.V. Xrolenko – Sociolinguistics, Moskva, 2005
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev nutqlari, 2020
4. L.V. Shcherba – Ocherki po obshchey lingvistike, Moskva, 1974